

**ABDULLA QAHHORNING “ANOR” HIKOYASIDAGI SO‘ZLARNING  
MA’NO XUSUSIYATLARI**

**Rasulova Shahlobonu Shavkat qizi**

Buxoro davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi struktural va semiotik jihatdan tahlil qilindi. Hikoyadagi belgi munosabat bildiruvchi so‘zlar tatqiq etildi.

**Kalit so'zlar:** Badiiy tahlil , strukturalizm , semiotika , belgilar , Abdulla Qahhor, “Anor” hikoyasi.

**Abstract:** In this article, the story "Pomegranate" by Abdulla Qahhor was analyzed structurally and semiotically. The words that the character reacts to in the story have been explored.

**Keywords:** Artistic analysis, structuralism, semiotics, signs, Abdulla Qahhor, "Pomegranate" story.

**KIRISH:** Struktura fransuzcha “qurilish” , “joylashish” so‘zlaridan olingan. U badiiy matnning o‘ziga xos tarkibga egaligini, alohida qurilishini uning unsurlaridan birining o‘zgarishi boshqalarning ham o‘zgarishiga olib keladigan tarzda joylashuvini ko‘zda tutadi. Strukturalizm badiiy asar asosida yotgan , uni tashkil etgan fikrning shakliy tarkibini aniqlash , anglatish va ifodalashni tadqiq etadigan ilmiy faoliyatdir.

Semiotika grekcha “zepnop” so‘zidan olingan bo‘lib , “belgi” ma’nosini anglatadi.Semiotika – belgi va belgining tizimlari haqidagi fan. “Belgi” keng

qamrovli atama bo‘lib tabiat , jamiyat , hatto koinot hududidagi tushunchalarni o‘z qurilmasiga kirlita oladi . Strukturalizm va semiotikaning asoschilaridan biri bo‘lgan Rolan Bart hech bir narsa o‘z-o‘zicha belgi bo‘la olmasligini ko‘rsatgan edi. Allomaning yozishicha so‘z belgi bo‘lishi uchun biror bir tizim tarkibiga kirishi zarur.

Strukturalizm va semiotika kabi fan sohalarining paydo bo‘lishida F. de Sossyurning til tizimi , Z. Freydning psixoanaliz, M. Baxtinning polifonik nazariyalari muhim ahamiyatga ega.

Milliy adabiyotshunoslikda istiqlol davrida yuzaga kelgan ayrim ishlarda semiotika haqida ta’rif , fikr-mulohazalar bayon qilingan. Professor Q.Yo‘ldoshev bu haqda shunday yozadi “Semiotika – belgi va belgning tizimlari haqidagi fan. Struktural-semiotik qarashga ko‘ra , biror til , biror matn , biror madaniyat o‘z holicha , dunyodagi boshqa til , matn va madaniyatdan uzilgan holda mavjud bo‘lmaydi”.

Struktural metod badiiy asar qismlari va ularning o‘zaro aloqalarini o‘rganadi. Bu o‘rinda tadqiqotchi matnning tashkillanishini yoki badiiy voqelikning tashkillanishini diqqat markaziga qo‘yishi mumkin bo‘ladi. Semiotik tahlil esa badiiy asardagi lisoniy belgilarning ma’no qirralarini o‘rganishga qaratiladi.

**TADQIQOT METODI VA NATIJASI:** Struktural talqinda bosh qahramon – Turobjon ham, uning xotini ham emas. Anor! Asar konfliktining bosh sababi ham, syujetdagi tugun ham, yechim ham anorga bog‘liq. Bu faqat sarlavhada aks etgani uchun emas, balki hikoya syujeti ham “anor” (anor deb tasavvur qilingan narsa)ning asar voqeasiga kirishi bilan boshlanadi va anor (haqiqiy anor)ning xonadonga kirib kelishi bilan yakunlanadi.

Mana shu ikki anor: yolg‘on anor va rost anor o‘rtasidagi turmush; ikki

qutb o‘rtasidagi hayot: yolg’on (hayot) va rost (o‘lim) asarning mohiyatini belgilaydi.

Anor – muloqot vositasi, kommunikativ birlik. U, asosan, qaramaqarshiliklarni birlashtiradi: kun va tun, er va xotin, sevgi va alam, er mushti va xotin ko‘zyoshisi. Demak, u muvozanatga ham olib keladi. Xotin anorni kutib yashaydi, er anor olib kelishini o‘ylab. Anor mojarosi oilani birlashtirishi ham mumkin edi, lekin uning darz ketishiga ham mana shu anor sabab bo‘ldi. Bundan tashqari yozuvchi yana anorga qanchadan-qancha ma’noviy yuk ortgan. Anor – to‘qlik belgisi (Mullajon qozining bog‘i – bog‘ emas, naq anorzor). Anor – yorug‘lik timsoli, uni o‘ylaganda ayolning ko‘ngli yorishadi, xuddi mushakdan yorishgan tunday. Anor – vaqt timsoli, voqealarning ko‘ngli yorishadi, xuddi mushakdan yorishgan tunday. Anor – vaqt birligi harakat va makondan ham aniqroq ishlangan. Turobjonning uyga kirib kelishi chog‘ida xotin kechki ovqatga unamoqchi edi (jo‘xori tuyib, suyuq osh qilmoqchi). Qorongi hali tushmagan edi, yaktakning yengi yirtilishi qorong‘ulikda ko‘rmay qolishlikdan emas, bemavrud hovliqishdan... va hikoya yakunlanganda hali tong otmagan edi. Voqealarning 10-12 soat ichida kechadi. Ixchamgina hikoya bag‘rida bu yarim sutkaga yaqin vaqt imillab o‘tadi, xuddi oqsoq mushuk singari.

Darvoqe, mushuk nega oqsoq degan savolni ayrim sinchkov munaqqidlar o‘rtaga qo‘yishgan, lekin uning javobida esa shunchaki detal yoki punktir sifatida keyingi voqealarning xunuk rivojiga timsolday qarashgan. Holbuki, oqsoq mushuk – vaqt timsoli. U sekin o‘tadi. Er ikki kosa ovqatni paqqos tushirganda xotin hali kosani yarimlatmagandi. Buni ko‘rgan “Turobjonning ko‘ziga negadir oqsoq mushuk ko‘rindi. Mushuk yirtilgan yengini esiga tushirdi, avzoyi buzildi”, xayoliga sudralib kelgan oqsoq mushuk emas, xotinning imillashi g‘ashini keltiradi: “Uning avzoyidan “esiz, jo‘xori, qatiq, o‘tin” degan

ma’noni anglab xotin, ko‘ngli tortmasligiga qaramasdan, kosani bo‘shatdi». Demak, vaqt birligi – oqsoq mushuk xotinga kosani bo‘shatishga yordam beradi. Oqsoq mushuk asarda boshqa ko‘rinmaydi.

**XULOSA:** Odamlar turmushidan olingen epizodlarda , lavhalarda ular hayotiga , qismatiga daxldor fojiaviy mohiyatni ko‘rish , teran his etish , personajlar xarakteri va qismatini ularning ruhiyati ifodasi orqali yorqin badiiy detallar vositasida gavdalantirish Qahhor hikoyanavislik san’atining eng muhim jihatlaridir. Shu o‘rinda Said Ahmadning Qahhor hikoyalari haqidagi ushbu fikrlari o‘rinlidir. “Abdulla Qahhor hikoya va qissalaridagi har bir so‘z , har bir iboraning o‘rni shu qadar muqim va mustahkamki , ularni boshqa so‘z , boshqa ibora yoxud jumla bilan o‘zgartirish deyarli imkonsiz. Men tajriba uchun ustozning “O‘gri”, “Bemor” , “Anor” hikoyalaridagi ba’zi so‘zlarni olib tashlab ko‘rdim. Bo‘lmadi. Hikoya bir ustuni olib tashlangan ayvonga o‘xshab lapanglab qoldi”. Abdulla Qahhor hikoyalarida o‘ziga xos belgi munosabatlardan foydalangan. Qahhor hikoyalarida timsollar, ramzlar, belgilar bildiruvchi birliklar talaygina. Ushbu birliklarning mohiyatini o‘rganish hikoyalarning tub mohiyatini to‘laqonli tushunishga yordam beradi.Hikoya janrida sutrunktural va semiotik tahvilni qo‘llash asar jozibasini va muhitini yanada teranroq tasavvurlarda aks ettiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulla Qahhor. Shaxs va ijodkor.Maqlolar to‘plami. – T.: Tamaddun, 2013
2. Ibrohim Haqqul. Abdulla Qahhor jasorati. Esse. “Tafakkur” jurnali, 2007.
3. Ro‘ziyeva Shohista.”Hikoya janrini o‘rganish prinsiplari(Abdulla Qahhor ijodi misolida)”.Bitiruv malakaviy ishi. – T.2018

4. Q.Yo‘ldoshev, O. Fayzullayeva.”Badiiy tahlil asoslari” fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua . – Guliston.2020
5. R.Saidova. Badiiy matnda belgi munosabatlari.Dissertatsiya. – Buxoro. 2021
6. Семиотика. Что это? – <https://www.uznaychtotakoe.ru/semitika/>